## DASTURNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI

| | |
|---|---|
| Nomzodga talablar | O’rta yoki o’rt maxsus ma’lumotiga ega bo’lish va xorijiy tillarni bilish |
| Qabul tartibi | Suhbat, kirish imtihoni, xorijiy til va yozma test |
| Qabul muddati | 30 avgust |
| O’qisshni boshlanishi | Kuzgi semestr |
| O’qish muddati | 4 yil |
| Xorijda o’qish | 2 yil |
| Jamlanadigan kredit soatlari | 65 kredit |
| Diplom bo’yicha mutaxasisligi | SamDCHTI filologiya va tillarni o’qtish hamda hamkor oilygoh diplomi |
| Batafsil | https://samdchti.uz/xorijiy-talaba/kontrakt-narxlari |

Xalqaro qo'shma darajalar ko'p madaniyatli muhitda bo'lgan holda yosh mutaxassislarni ikki yil ichida yuqori darajada tayyorlashga, ularga xalqaro muhitda, xususiy sektorda, milliy va xalqaro jamoat institutlari va NNTlarda rivojlanish uchun bilim va zarur ko'nikmalar berishga qaratilgan. Ushbu ko'p tarmoqli va saylov dasturi chet tillarini o'rganish va ijtimoiy fanlarni, shuningdek, amaliy va professional darajada tahsil olishni uzida mujassamlashtirgan.

## Manizl

Samarqand davlat chet tillar instituti
indeks: 140104. Bustonsaroy ko’chasi 93,
Samarqand shahri, Uzbekiston
Tel: 998662382952

https://samdchti.uz/bulim/qoshma-talim-dasturlari-bulimi

# Xalqaro qo’shma a’lim dasturlari

SamDCHTI



## 2+2

Xalqaro muhitda o'qish va ishlashni xohlaysizmi? Tilni to'g'ri o'rgatish sizning maqsadingizmi? Bir vaqtning o'zida ikki darajaga ega bo'lishni xohlaysizmi? Bizda mavud qo’shma ta’lim dasturlari sizga ushbu ikoniyatlarni taqdim qiladi. Ushbu dastur asosida siz ikki yil Chet tillari institutida va ikki yilni bizning nufuzli xalqaro hamkor universitetlarimizning birida to’liq integrallashgan o’quv dasturlari hamda ikki hamkor o’rtasida kelishilgan kredit asosida tahsil olasiz. Chet elda o’qish jarayonida siz chet tilni va chet el madaniyati va urf-odatlarini chuqurroq tadqiq qilish imkoniyati tug’iladi.

.

# Qoshma ta'lim dasturlari

Qo'shma ta'lim dasturlari orqali siz ikki yil O'zbekistonda va hamkor davlatlar orasidan o'zingiz tanlagan mamlakatda ikki yil o'qiysiz. Sizda bizda mavjud beshta hamkor mamlakatdagi universitetlarni tanlash imkoniyati mavjud. Ba'zi hamkor universitetlar magistratura yoki doktoranturada tahsil olish imkoniyatlarini ham taklif qilishadi.

Siz o'qishni SamDCHTIda yoki hamkor universitetlardan birida boshlashingiz mumkin (ilovaga qarang!). O'quv dasturlari ikki hamkor o'rtasida kelishilgan holda muvofiqlashtiriladi. O'qish Uzbek, ingliz va qabul qiluvchi mamlakat tilida olib boriladi. Xorijda o'qish jarayonida siz malaka oshirish imkoniyatiga ham ega bo'lasiz. Xorijda o'qishni tugatganizdan so'ng, sizga SamDCHTIning dasturi bo'yicha bakalavr, magistr darajasi va siz o'qigan hamkor universitetning bakalavr magistr darajasini qo'lga kiritish imkoniyati tug'iladi.

Bu kabi ma'lumotga ega bo'lish sizga jamiyatning barcha sohalaridagi etakchi xalqaro kompaniyalarda faoliyat olib borish imkoniyatini beradi.

## (2 + 2) Dastur tarkibi

Xorijiy tillarini o'qitish sohasida bo'lajak bitiruvchi sifatida siz xalqaro miqyosda to'rt yillik intensiv mashg'ulotlarda tayyorgarlik ko'rasiz. Barcha talabalar uchun tanlagan xalqaro hamkor universitet mamlakatning tilidan tashqari ingliz tilini o'rganish imkniyati mavjud. Dasturni muvaffaqiyatli tugatish uchun talabalar zarur kreditlarni jamlab borishlari kerak. Dasturni bitirgandan so'ng talabalarda keying ta'lim bosqichlarida o'qishni davom ettirish imkoniyatlari mavjud bo'ladi.

### Ariza topshirish shartlari

SamDCHTIda tahsil olishni xoxlagan abiturentlar quyidagi tartibda hujjatlarni topishirishlari kerak

Bakalavr darajasi uchun:

-O'rta, o'ta maxsus ma'lumotnomasi yoki diplomi

-Tanlangan yo'nalish bo'yicha kirish imtihoni

-Til bilish sertificati (IELTS, TOEFL va.b), agar mavjud bo'lsa

Magistr darajasi uchun:

-Bakalavr diplomi;

-Til bilish sertificati (IELTS, TOEFL va.b), agar mavjud bo'lsa

**Bakalavriyat**




## Ta'lim yo'nalishlari va Xorijiy hamkorlar:

>Filologiya va tillarni o'qitish (Rus tili) yo'nalishi bo'yicha **Altay davlat pedagogika universiteti (Rossiya Federatsiyasi);**

>Filologiya va tillarni o'qitish (Koreis tili) yo'nalishi bo'yicha **Sunchunyang universiteti (Janubiy Koreya);**

>Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi bo'yicha **"City University Malaysia" universiteti (Malayziya);**

>Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi bo'yicha **"City University Malaysia" universiteti (Malayziya);**

>Filologiya va tillarni o'qitish (Xitoy tili) yo'nalishi bo'yicha **Shanxay xorijiy tillar universiteti (Xitoy);**

>Magistratura mutaxasisligi Lingvistika (Ingliz tili) yo'nalishi bo'yicha **Belgorod milliy tadqiqot universiteti (Rossiya Federatsiyasi).**

### Ariza topshirish uchun barcha zaruriy hujjatlar:

-Pasport nusxasi

-O'rta maxsus ma'lumotnomasi yoki diplomi, bakalavr diplomi (magistratura uchun) nusxasi. Agar hujjat O'zbek, Rus va Ingliz tilida bo'lmasa notarial tasdiqlangan tarjimasi talab etiladi.

- Til bilish sertificati (IELTS, TOEFL va.b), agar mavjud bo'lsa, agar bo'lmasa talab etilmaydi.